

## LINGVISTIK VA NUTQIY KOMPETENSIYALAR NISBATINI DARSDA MUVOZANATLASH: MEZONLAR VA AMALIY YECHIMLAR

**Ollaberganova Madinabonu Xasanboy qizi**

**Tashkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti stajyer-oqituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.18204475>**

**Annotatsiya:** Kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili ta'limida til tizimi haqidagi bilim (lingvistik kompetensiya) bilan real muloqotda fikrni samarali ifodalash malakasi (nutqiy kompetensiya) o'rtasidagi muvozanat dars sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Amaliyotda ko'pincha grammatik-orfografik aniqlikni oshirishga qaratilgan mashqlar ustun kelib, natijada o'quvchida "biladi, lekin qo'llay olmaydi" muammosi yuzaga chiqadi; aksincha, faqat erkin muloqotni ko'zlagan darslarda tilda me'yoriylik va uslubiy to'g'rilikning barqarorlashuvi sekinlashadi. Mazkur maqolada lingvistik va nutqiy kompetensiyalar nisbatini dars jarayonida muvozanatlash mezonlari (dars maqsadi va natijasi mosligi, vaqt-taqsimot, topshiriq dizayni, xatolar profili, baholash og'irligi, transfer ko'rsatkichi) hamda o'qitish amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan yechimlar (integrativ topshiriqlar, "qoidadan vaziyatga" o'tish mexanizmi, formatif baholash va kechiktirilgan tahrir, nutqiy janrlar bo'yicha mini-modellar) metodik tahlil asosida yoritiladi. Nazariy tayanch sifatida kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi hamda harakatga yo'naltirilgan yondashuv talablari hisobga olinadi. Hulosada ona tili darsini "lingvistik yadro" va "nutqiy vazifa"ning bir butun tizimi sifatida loyihalash bo'yicha amaliy tavsiyalar umumlashtiriladi.

**Kalit so'zlar:** lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, dars dizayni, formatif baholash, til me'yorlari, transfer, rubrika.

Ona tili darsining strategik vazifasi nafaqat til haqidagi bilimlarni berish, balki shu bilimlarni og'zaki va yozma muloqotda, ijtimoiy-amaliy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo'llay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, "lingvistik kompetensiya" (fonetika, leksika, grammatika, imlo va punktuatsiya bo'yicha me'yoriy bilim hamda ularni tahlil qila olish) bilan "nutqiy kompetensiya" (tinglab tushunish, fikrni mantiqan qurish, mazmunni auditoriya va vaziyatga mos ifodalash, matn yaratish va tahrir qilish) o'rtasidagi nisbat darsning asosiy didaktik muvozanati hisoblanadi. Metodik adabiyotlarda ham til va nutqning ajralmas yaxlitligi e'tirof etiladi, biroq ularning bir xil hodisa emasligi, ta'lim jarayonida esa har biri alohida didaktik vazifani bajarishi ta'kidlanadi.

Xalqaro til ta'limi nazariyasida kommunikativ kompetensiya tushunchasi lingvistik bilimning ijtimoiy-vaziyat talablari bilan uyg'unlashishini izohlaydi: shaxs grammatik to'g'rilikni bilishi bilan birga, "qachon, kim bilan, qanday maqsadda, qaysi uslubda" gapirish yoki yozishni ham uddalashi kerak. Bu yondashuv Hymes tomonidan ilgari surilgan konseptual g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik Canale va Swain kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini (grammatik, sotsiolingvistik, strategik va boshqalar) nazariy asosda yoritgan. Shuningdek, CEFR doirasida tilni "harakat" sifatida ko'ruvchi yondashuv kuchayib, o'quv natijalari real kommunikativ vazifalarni bajarish orqali ifodalanishi qayd etiladi; Companion Volume esa aynan amaliy "deskriptorlar" orqali til faoliyatining kengaytirilgan ko'lamini (jumladan, mediatsiya va onlayn muloqot) ta'riflaydi.

O'zbek tili o'qitish metodikasida ham kommunikativ savodxonlikni oshirish, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va til darslari samaradorligini amaliyotga bog'lab kuchaytirish g'oyalari metodik qo'llanmalarda aniq ko'rsatib o'tiladi. Biroq

sinf amaliyotida ikki og'ish ko'p uchraydi: birinchisi, lingvistik materialni "yakuniy maqsad" deb qabul qilib, nutqiy vazifani ikkilamchi darajaga tushirish; ikkinchisi esa muloqotni markazga qo'yib, me'yoriylik va tahrir madaniyatini "o'zi-o'zidan keladi" deb taxmin qilish. Har ikki holatda ham ta'lim natijasi barqaror bo'lmaydi: birida bilim inertlashadi, ikkinchisida esa xatolar mustahkamlanib (fossilizatsiya), uslubiy madaniyat sekin shakllanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ona tili darsida lingvistik va nutqiy kompetensiyalar nisbatini boshqarish uchun aniq mezonlar tizimini taklif qilish hamda shu mezonlarni dars dizayni, topshiriq konstruksiyasi va baholash mexanizmlariga tatbiq etish bo'yicha amaliy yechimlarni asoslashdir. Tadqiqot savollari quyidagicha izohlanadi: dars maqsadi va natijasini ikki kompetensiya doirasida qanday operatsionallashtirish mumkin; muvozanatni buzayotgan omillar qaysilar; "qoidani bilish"dan "qoidani vaziyatda qo'llash"ga o'tishni tezlashtiruvchi metodik mexanizmlar nimalardan iborat.

Maqola metodik-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda bir nechta manba va usullar uyg'unlashtirildi. Nazariy poydevor sifatida kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi, tilni funksional-mazmuniy nuqtai nazardan tushuntirishga oid qarashlar hamda harakatga yo'naltirilgan yondashuvga doir me'yoriy-yo'riqiy materiallar qiyosiy tahlil qilindi. Metodik bazada esa o'zbek tili o'qitish bo'yicha oliy ta'lim va umumta'lim amaliyotida keng qo'llaniladigan qo'llanmalardagi (darsni rejalashtirish, nutq o'stirish, tahlil va mashq turlari) yondashuvlar kontent-tahlil qilindi.

Operatsionallashtirish bosqichida "muvozanat" tushunchasi darsning uch qatlamida aniqlashtirildi: maqsad qatlamida (qaysi kompetensiya darsning yakuniy natijasida yetakchi bo'lishi va ikkinchisi qanday xizmat qilishi), jarayon qatlamida (vaqt, faoliyat shakllari, interaktivlik darajasi, mashqdan vazifaga o'tish), baholash qatlamida (aniqlik va adekvatlik og'irligi, xatolar profili, matn sifati ko'rsatkichlari). Shu asosda mezonlar tizimi ishlab chiqilib, ularni dars ishlanmasi ekspertizasi uchun rubrika ko'rinishida ifodalash yondashuvi qo'llandi; rubrikada lingvistik aniqlik (imlo, grammatik to'g'rilik), nutqiy sifat (mantiqiy bog'lanish, uslubiy moslik, kommunikativ maqsadga erishish), hamda transfer (til birligini yangi vaziyatda ishlata olish) indikatorlari birgalikda baholanishi ko'zda tutiladi.

Metodik yechimlarni asoslashda sotsiokonstruktiv yondashuv doirasidagi "scaffolding" va tahrir orqali o'rganish (draft-feedback-revision) g'oyalari, shuningdek, yuqori psixik funksiyalarning ijtimoiy vositalanishi haqidagi qarashlar inobatga olindi. Dars amaliyoti uchun taklif etilayotgan model "lingvistik yadro"ni (darsning til birliklari va me'yorlari bo'yicha aniq o'qitiladigan bo'lagi) "nutqiy vazifa"ga (real kommunikativ mahsulot: og'zaki chiqish, munozara, matn, izoh, xulosa, tahrirlangan yozuv) xizmat qildirish prinsipiga tayanadi; bunda qoidaning o'zi emas, balki qoida yordamida hal qilinadigan nutqiy muammo markazga chiqadi.

Muvozanat muammosini amaliy boshqarish uchun, avvalo, "lingvistik" va "nutqiy" faoliyatning darsda qanday ko'rinishda namoyon bo'lishini aniq ajratish zarur. Lingvistik faoliyat odatda tahlil, ta'rif, qoida, misol, morfologik-sintaktik ajratish, imlo me'yorlarini mustahkamlash kabi ishlar orqali ko'rinadi. Nutqiy faoliyat esa axborotni tushunish, maqsadga muvofiq fikr bildirish, dialog va monolog qurish, matn yaratish, auditoriyani hisobga olib uslub tanlash, dalillash, tahrir va qayta yozish kabi amallarni o'z ichiga oladi. Muammo shundaki, dars rejalarida bu ikki yo'nalish ko'pincha parallel emas, ketma-ket, ammo uzviy bog'lanmasdan ketadi: avval "qoidani o'rganish", so'ng "nutq o'stirish" degan formal ajratish yuzaga keladi. Natijada o'quvchi qoidani eslab qolishi mumkin, biroq uni nutqiy vaziyatda tez va mos qo'llay

olmaydi, chunki qoidaning funksiyasi (nima uchun va qachon kerakligi) tajribada yetarlicha “faollashtirilmagan” bo‘ladi.

Taklif etilayotgan yondashuvda muvozanat “50/50 vaqt taqsimoti” kabi soddalashtirilgan nisbat bilan emas, balki darsning yakuniy mahsuloti va u mahsulotni yaratish uchun zarur bo‘lgan til vositalari o‘rtasidagi funksional bog‘lanish bilan belgilanadi. Masalan, darsning nutqiy mahsuloti sifatida “mavzu bo‘yicha izohli xulosa” yoki “muammoli savolga dalilli javob” tanlansa, lingvistik yadro o‘sha mahsulotni sifatli qurishga xizmat qiladigan birliklar bilan cheklanadi: bog‘lovchi vositalar, sabab–oqibat konstruktsiyalari, kirish so‘zlar, terminologik aniqlik, imlo va punktuatsiya nuqtalari. Shunda lingvistik material ortiqcha nazariy yuk bo‘lmay, nutqiy vazifani bajarish uchun “instrument”ga aylanadi. Bu yondashuv CEFRdagi “can do” mantiqi bilan hamohang: o‘quv natijasi “qoidani biladi” emas, “muayyan vazifani bajaradi” tarzida ifodalanadi.

Muvozanatni baholash mezonlari tizimi besh asosiy blokda umumlashtiriladi. Birinchi blok — maqsad–natija uyg‘unligi: dars maqsadi lingvistik birliklarni sanab berish bilan cheklanmay, ular yordamida yaratiladigan nutqiy mahsulot sifatini ham ko‘zlashi kerak. Ikkinchi blok — topshiriq dizayni: mashqlar zanjiri nazoratli (controlled) mashqdan yarim-erkin (semi-controlled) faoliyatga, undan erkin kommunikativ ishlab chiqarishga (production) tabiiy o‘tishi lozim; bu o‘tish keskin bo‘lsa, o‘quvchi aniqlikni yo‘qotadi, juda cho‘zilsa, nutqiy vazifa dars oxiriga “yetmay qoladi”. Uchinchi blok — transfer indikatori: o‘rganilgan til vositasi yangi matn yoki yangi vaziyatda, boshqa mavzu kontekstida qo‘llanayotgan-qo‘llanmayotgani kuzatiladi; transfer bo‘lmasa, lingvistik bilim inert qolgan bo‘ladi. To‘rtinchi blok — xatolar profili va tahrir madaniyati: xatolar faqat “topib tuzatish” uchun emas, balki o‘quvchining qaysi bosqichda (rejalash, qurish, me‘yorlashtirish, tahrir) qiynalayotganini diagnostika qilish uchun ishlatiladi. Beshinchi blok — baholash og‘irligi: agar baholashning asosiy ulushi faqat imlo va grammatik to‘g‘rilikka bog‘lab qo‘yilsa, o‘quvchi muloqotdan qochib, xavfsiz “qisqa gaplar”ga o‘tadi; aksincha, faqat erkinlik baholansa, tahrir odati sustlashadi. Shuning uchun rubrika ikki yo‘nalishni birgalikda ushlab turishi, lekin dars maqsadiga ko‘ra ulardan biriga vaqtincha ustuvor og‘irlik berishi kerak.

Amaliy yechimlarning markazida “qoidani vaziyat orqali kashf ettirish yoki vaziyatda ishlatishga majbur qiladigan” integrativ topshiriqlar turadi. Masalan, kelishik qo‘shimchalari mavzusida an’anaviy mashqlarni to‘liq inkor etmasdan, ularni ma’lumot yetkazish vazifasi bilan birlashtirish mumkin: o‘quvchi biror joyga borish yo‘nalishini tushuntiradi, xizmat ko‘rsatish holatini tasvirlaydi yoki kichik e’lon matnini yozadi; shu jarayonda kelishiklar faqat “qoidani takrorlash” emas, mazmunni aniq yetkazish sharti sifatida ishlaydi. Bunday topshiriqlarda o‘qituvchi til vositalarini “tayyor paket” sifatida bermaydi, balki o‘quvchining matnida paydo bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, minimal, ammo aniq lingvistik yordam (scaffold) ko‘rsatadi; bu yordam namunaviy konstruktsiyalar, bog‘lovchi vositalar, terminlar ro‘yxati emas, balki kontekstga mos model gaplar va tahrir signallari ko‘rinishida beriladi. Shu tariqa o‘quvchi “me‘yor”ni muloqotning ichida sezadi va o‘z nutqini qayta qurishga motivatsiya oladi.

Darsning o‘rtacha siklini metodik jihatdan “kirish–faollashtirish–model–ishlab chiqarish–tahrir–refleksiya” ketma-ketligi sifatida tashkil etish muvozanatni boshqarishga yordam beradi, biroq bu ketma-ketlik qat’iy shablon emas, “ikki kompetensiyani bir-biriga xizmat qildirish” prinsipi sifatida talqin qilinishi zarur. Masalan, “model” bosqichida o‘qituvchi lingvistik yadroga kiradigan birlikni juda ixcham tushuntiradi, keyin darhol o‘quvchini nutqiy

vazifaga olib kiradi; so'ng "tahrir" bosqichida aynan o'sha birlik o'quvchi matnida tekshiriladi. Bu yondashuvda tahrir "xatoni tuzatish jazosi" emas, nutqiy mahsulotni yaxshilash texnologiyasi bo'lib qoladi; o'quvchi tahrir qila olgan sayin, lingvistik me'yor uning shaxsiy kompetensiyasiga aylanadi. Til ta'limi metodikasida darsni rejalashtirishda o'quvchining nutqiy ko'nikma va malakalarini hisobga olish, darsning DTS talablariga tayangan holda tashkil etilishi zarurligi ham shuni qo'llab-quvvatlaydi.

Muvozanatni amaliy kuzatuvda aniqlash uchun "dars portreti" texnikasi foydali bo'lishi mumkin: dars davomida o'qituvchi va o'quvchi nutqining ulushi, o'quvchining mustaqil ishlab chiqarish vaqti, tahrir uchun ajratilgan vaqt, hamda "qoidani qo'llash"ga qaratilgan vazifalarning ulushi tahlil qilinadi. Agar darsda o'quvchi ishlab chiqarishi minimal bo'lsa, nutqiy kompetensiya shakllanishi tabiiy ravishda cheklanadi; agar ishlab chiqarish bor, ammo tahrir va aniqlashtirish mexanizmi yo'q bo'lsa, lingvistik kompetensiya mustahkamlanmaydi. Shuning uchun muvozanat mezonlari tashkiliy ko'rsatkichlar (vaqt va faoliyat) bilan bir qatorda mahsulot ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga oladi: o'quvchi matnida mantiqiy bog'lanish vositalarining paydo bo'lishi, uslubiy moslikning ortishi, bir xil xato turining kamayishi, fikrning auditoriyaga mos ravishda qayta qurilishi.

Baholash masalasida eng muhim amaliy yechim — rubrikani dars maqsadi bilan "dinamik" bog'lashdir. Masalan, argumentativ mini-insho darsida mazmun va mantiq, dalillash hamda uslubiy moslik birinchi planda turadi, imlo-grammatika esa "minimal me'yor" sifatida nazorat qilinadi; keyingi darsda esa aynan tahrir va me'yorlashtirish kuchaytirilib, o'sha matn qayta ishlanadi. Bunday ikki bosqichli baholash o'quvchiga bir vaqtning o'zida ham erkin fikrlash, ham mas'uliyatli tahrir qilishni o'rgatadi. Til testlari va baholash nazariyasida ham "qobiliyatni o'lchash" faqat formal to'g'rilikka emas, vazifani bajarish kontekstiga bog'liq ekanligi qayd etiladi; demak, ona tili baholashida ham vazifa va mezon mosligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xatolar bilan ishlashda muvozanatni saqlash uchun "darhol to'xtatib tuzatish" va "butunlay e'tiborsiz qoldirish"ning o'rtasini topish zarur. Og'zaki nutqda kommunikativ oqim buzilmasligi uchun o'qituvchi xatolarni qayd etib borib, faoliyat yakunida qisqa tahlil va qayta aytish orqali to'g'rilashi, yozma nutqda esa tahrir kodlari va qayta yozish strategiyasini qo'llashi samarali bo'ladi. Muhim nuqta shundaki, tahrir o'quvchi tomonidan bajariladigan intellektual amal sifatida tashkil etilmasa, to'g'ri variantni o'qituvchi aytib berishi bilan muammo hal bo'lmaydi; o'quvchi xatoni sababini anglab, keyingi matnda o'zi nazorat qila olishi kerak. Shuningdek, nutqiy kompetensiya rivojida ijtimoiy muloqot va vositalangan fikrlashning roli ta'kidlanadi; demak, tahrir ham o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi doirasida "qayta qurish" jarayoni sifatida tashkil etilganda natija barqarorroq bo'ladi.

Natijaviy jihatdan maqolada taklif etilayotgan model quyidagi metodik xulosani beradi: muvozanat darsning "mavzu"si bilan emas, "vazifa"si bilan boshqariladi. Mavzu lingvistik bo'lishi mumkin, biroq vazifa nutqiy mahsulotga yo'naltirilsa, o'quvchi mavzuni muloqot ehtiyoji sifatida qabul qiladi. Aksincha, mavzu nutqiy janr yoki kommunikativ vaziyat bo'lsa ham, lingvistik yadro aniq belgilab olinmasa, mahsulot sifati sustlashadi. Shunday qilib, muvozanatni saqlashning eng amaliy yo'li — har bir darsda "qaysi lingvistik birlik(lar) qaysi nutqiy mahsulotni yaxshilaydi" degan bog'lanishni ochiq loyihalash va darsning barcha bosqichlarini shu bog'lanishga xizmat qildirishdir.

Lingvistik va nutqiy kompetensiyalar nisbatini muvozanatlash ona tili ta'limining metodik "yadro muammosi" bo'lib, u darsni rejalashtirish, topshiriq qurish, baholash va tahrir strategiyalarining yagona tizimda ishlashini talab qiladi. Mazkur maqolada muvozanatni vaqt nisbatiga keltirib qo'ymasdan, dars maqsadi va nutqiy mahsulotning funksional bog'lanishi orqali boshqarish konsepsiyasi asoslandi; muvozanatni diagnostika qilish uchun maqsad-natija uyg'unligi, topshiriq dizayni, transfer, xatolar profili va baholash og'irligi kabi mezonlar taklif etildi. Amaliy yechim sifatida "lingvistik yadro"ni "nutqiy vazifa"ga xizmat qildirish, integrativ topshiriqlar orqali qoidani vaziyatda faollashtirish, formatif baholash va ikki bosqichli tahrir mexanizmini yo'lga qo'yish tavsiya etildi.

Metodik jihatdan eng muhim natija shuki, ona tili darsi til haqidagi bilimlarni jamlash maydoni emas, balki til vositalari yordamida fikrni qurish, qayta qurish va tahrir qilish texnologiyasini o'rgatuvchi amaliy laboratoriyaga aylanganda, lingvistik aniqlik ham, nutqiy erkinlik ham bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, o'zaro kuchaytiradi. Kelgusi izlanishlar doirasida taklif etilgan mezonlar rubrikasini turli yosh bosqichlari, turli janrlar va raqamli muhitdagi (onlayn yozishmalar, multimodal matnlar) nutqiy vazifalarga moslab validatsiya qilish maqsadga muvofiq.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Hymes D.H. On communicative competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.). *Sociolinguistics: Selected Readings*. — Harmondsworth: Penguin Books, 1972. — P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // *Applied Linguistics*. — 1980. — Vol. 1, No. 1. — P. 1–47.
3. Bachman L.F. *Fundamental Considerations in Language Testing*. — Oxford: Oxford University Press, 1990. — 408 p.
4. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. — Strasbourg: Council of Europe, 2001.
5. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Companion volume*. — Strasbourg: Council of Europe, 2020.
6. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Halliday M.A.K., Matthiessen C.M.I.M. *An Introduction to Functional Grammar*. — 3rd ed. — London: Hodder Arnold, 2004.
8. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. *O'zbek tili o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma*. — Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. — 192 b.
9. Nurmonov A. *Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari*. — Toshkent: Akademynashr, 2010. — 112 b.
10. G'ulomov Yo., Rasulov I., Rustamov H., Mirzaahmedov B. *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. — Toshkent: O'qituvchi, 1995.
11. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B. *Ta'lim texnologiyasi*. — Toshkent: O'qituvchi, 1999.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori: "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida". — Toshkent, 2017.